

**DIN. FALSAFA. ILOHIYOT
RELIGION. PHILOSOPHY. THEOLOGY**

Ja'far Xolmo'minov

(Toshkent, O'zbekiston)
jafarmuhammad@mail.ru

**Globallashuv sharoitida milliy til
fenomenining ijtimoiy-falsafiy aspektlari**

Abstrakt

Dunyodagi yagona siyosiy-iqtisodiy makonni yaratish, uning doirasida esa xalqlarni yagona madaniyat va yagona til atrofida birlashtirishga intilayotgan globallashuv jarayoni muayyan til yoki tillarni mintaqaviy yoki xalqaro tilga aylantirish orqali bir tomondan turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida o'zaro muomala ko'prigini yaratsa, ikkinchi tomondan mintaqaviy yoki xalqaro tillarning milliy tillarga ta'siri, jumladan, milliy tilda chet tillari leksik va boshqa unsurlarning ko'payishi, milliy tilning qo'llanish doirasining qisqarishi va hatto milliy tilning butunlay yo'qolib ketishi muammosini ham keltirib chiqaradi. Bunday vaziyat dunyodagi boshqa milliy tillar qatorida O'zbekiston Respublikasining davlat tili hamda o'zbek xalqining milliy tili bo'lmish o'zbek tiliga ham o'z salbiy ta'sirini yetkazishi ehtimolidan xoli emas. Ushbu maqolada o'zbek tilining globallashuv sharoitida o'z identililigini saqlashi borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, madaniyat, milliy til, jahon tilshunosligi, lingvokulturologiya, ijtimoiy-falsafiy aspektlar, madaniyatlararo kommunikatsiya.

**Philosophical-Social Aspects of Language
Phenomen in Globalization Condition**

Abstract

The process of globalization, aimed at creating a single political and economic space in the world, uniting peoples around a single culture and a common language, creates a bridge between different languages, on the one hand, and regional, on the other, through the transformation of a particular language or languages into regional or international languages or the influence of an international language or languages on national languages,

including an increase in lexical and other elements of foreign languages in national language, a decrease in the use of the national language, and even in the complete disappearance of the national language. This situation can negatively affect the state language of the Republic of Uzbekistan and the national language of the Uzbek people, among other national languages of the world. The article discusses issues related to the preservation of the Uzbek language in the context of globalization.

Key words: globalization, culture, national language, world linguistics, linguoculturology, socio-philosophical aspects, intercultural communication.

Global til va global madaniyat

Yevropa ijtimoiy-gumanitar bilimlar sohasida "millat" tushunchasi bilan birga tilning "postmilliy dunyo"da yashashi haqidagi bahs haligacha davom etmoqda. Bir qator olimlar Benedikt Andersonning "Millat – bu tasavvurdagi hamjamiyatdir" degan mashhur nazariyasidagi "milliy til" tushunchasini inkor qiladilar va M.Baxtin g'oyalariga tayanib, uni "tasavvurdagi mafkuraviy konstrukt" deb ataydilar. Shunga asoslangan holda ingliz tilining keng taraqqulishini peshqadam qarashlar sohiblarining yangi global identililigini aks ettiruvchi tabiiy jarayon, deb baholaydilar. Tovar va ashyolarning inglizcha nomlanishi va inglizcha reklama strategiyasini kundalik hayotda keng tatbiq etib kelayotgan "global estetika va qadriyatlar"ning global sistemasi ortida "odamlar va sarmoyalarning erkin harakati" g'oyasi asosiy o'rin egallaydigan global monopoliya mafkurasi turadi. Milliy chegara va territoriyalar esa ushbu global siyosatni amalga oshirish yo'lida katta g'ov hisoblanadi. Shunday ekan, global monopoliyalar uchun milliy til ham keraksiz vositaga aylanadi. Bunday holatda til xohlagan paytda boshqa bir majmua bilan almashtirilishi mumkin bo'lgan belgi va alomatlarining ixtiyoriy majmuasi, ma'lumotlarni yetkazishda boshqa bir uskuna bilan almashtirilishi mumkin bo'lgan uskuna sifatida qaraladi. Bunda tilning hissiyotni u'yg'otish va tafakkurga ta'sir etish kabi funksiyalari o'z ahamiyatini yo'qotadi. Bunday holatda vatan, xalq va millatga bo'lgan muhabbat tuyg'ulari ham asta-sekinlik bilan yo'qolib boradi. Milliy tilga bo'lgan bu kabi yondashuv "postmilliy", "ustmilliy" (milliylikdan yuksakroq), "global identlilik" kabi bir qancha atamalar bilan izohlanadi. "Global identlilik"ni yaratish jarayoni allaqachon boshlanib ketgan va u o'zida keng metroetnik qatlam – faqat beparvolikka moyil bo'lgan, "hayotiy individual loyihalar"ni ko'zlagan va inglizcha so'zlaydigan o'ta yirik shaharning aholisi tipini mujassamlashtiradi.

Globallashuv va milliy til

Tilga milliy madaniyat va millat tafakkurini o'zida aks ettiruvchi ko'zgu sifatida qarash o'tgan asr nazariyotchi olimlarining diqqat markazida turgan muhim masalalardan biri edi. Bu holat XX asrning so'nggi choragida jahon tilshunosligida bir qator yangi lingvistik yo'nalishlarning paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Bu yo'nalishlar – kognitiv lingvistika (kognitiv tilshunoslik), etnolingvistika, til antropologiyasi, lingvokulturologiya, etnogermentevtika, pragmalingvistika, genderologiya kabi yangi yo'nalishlar bo'lib, ular markazida tilni milliy-madaniy, gender va kognitiv jihatdan tadqiq etish turadi.

“Til – madaniyat” munosabatlari dastlab V.fon Gumboldtning ishlarida to'liq yoritilgan [Гумбольдт 1985, 465]. Gumboldt tadqiqotlarining predmeti til tizimida u yoki bu shaklda aks etgan til va madaniyatning o'zaro ichki aloqadorligi hamda ifodalangan dalillar hisoblanadi. Til va madaniyat munosabati masalasini yoritishda bunday yondashuv ushbu muammo bo'yicha mavjud bo'lgan qarashlar evolyutsiyasining mantiqiy davomidir. Bu taraqqiyotning umumiy bosqichi V.fon Gumboldtning tilning millat ruhi ekanligi haqidagi qarashlari bilan bog'liq. V.fon Gumboldtning tilga to'g'ridan-to'g'ri madaniyat ifodasi sifatida bildirgan fikrlari keyinchalik Amerika relyativistlari tomonidan rivojlantirildi [Сенир 1993; Уорф 1960]. Shu ma'noda ikkinchi bosqich lisoniy nisbiylik nazariyasining tug'ilishi bilan e'tiborga tushdi. Uning mohiyati shundaki, o'z ona tiliga ega bo'lgan har bir millat shu til doirasida chegaralanadigan o'z dunyoqarashiga ham ega. Amerika relyativistlarining nuqtai nazari bo'yicha “til mutlaq va umumiy imkoniyatlarga ajraladi. U tafakkur va axloq me'yorlarini belgilaydi, mantiqiy kategoriyalar va konsepsiyalarini aniqlashtirishni boshqaradi, insonning ijtimoiy va individual hayotidagi barcha tomonlariga daxl qiladi, uning madaniyat shakllarini belgilaydi, insonning har bir qadamida uni boshqarib, yetaklab yuradi” [Зверенцев 1960]. Taraqqiyotning uch bosqichida til-madaniyat munosabatlari bo'yicha bir-birini to'ldiruvchi mazmundagi ishlar yuzaga keldi. Relyativistik nazariya borliqning lisoniy manzarasi gipotezasida o'z aksini topdi.

To'rtinchi bosqichda lingvistlar keltirilgan yondashuvlardagi mutlaqlikni inkor etib, til va madaniyat munosabatini chuqurroq asoslashga intildilar. Bunda o'sha davrning ideologi A.Vejbiskayaning qarashlari muhim o'rin egalladi [Вежбицкая 1996]. Uning ta'kidlashicha, til va tafakkurni tadqiq qilishda mutlaq universalizm asossiz va xatarli bo'lganidek, madaniyatni o'rganishdagi mutlaq relyativizm ham xuddi shunday. Natijada, til va madaniyat aloqalarini amalda mavjud bo'lgan qarashlar doirasida bir xilda qat'iy ravishda tavsiflash mumkin emas, degan xulosaga kelindi.

Bu fikr mohiyatan yetakchi o'rinni egalladi. Chunki til madaniyatni ifodalovchi vosita, bevosita uning ifodasidir. O'z navbatida, til ham madaniyatda aks etib turadi. Bunday tushunish lingvomadaniy munosabatlarda til triadasini yuzaga keltirdi: til – milliy o'ziga xoslik, til – madaniyat. Tarasovning fikricha, til va madaniyat munosabatlari faqat matndagina “inson va madaniyat”ni anglatuvchi masala sifatida aks etadi [Тарасов 1993, 6-15]. Bunday holatda gap til birliklarini o'rganishda lingvokulturologik yondashuv haqida boradi. Lingvokulturologik tadqiqotlar mundariyasi til hodisalarini turmush tarzi va millat an'analari bilan bog'lab o'rganishdan boshlanadi. Millatning mentaliteti millionlab kishilar xulq-atvorining psixologik determinanti, sotsiomadaniy o'zgarishlarning invarianti bo'lib, lingvokulturologiyani ham qiziqtiradi. Lingvokulturologik tadqiqotlar tarkibiga “ekstralingvistik soha”dan kelib chiqqan til hodisa va dalillarini kognitiv, madaniy va ijtimoiy (sotsial) izohlashni maqsad qiluvchi sof lingvistik tadqiqotlar kiradi. Y.S.Stepanovning ta'kidlashicha, til strukturasini to'liq tasvirlash “tilning tabiati”ni ochib berishda lingvokulturologik masalalarga murojaat qilmaslik mumkin emas [Степанов 1997].

Til va madaniyat munosabatlari haqidagi klassik nazariyalar V.fon Gumboldt, E.Sepir, B.Uorf kabi olimlar nomi bilan bog'liq bo'lsa, hozirgi lingvokulturologiyaning rivojlanishida A.Vejbiskaya, E.M.Vereshagin, V.V.Vorobev, D.B.Gudkov, Y.N.Karaulov, V.N.Kostamarov, V.V.Krasnix, E.S.Kubryakova, E.I.Kukishkina, V.A.Maslova, Y.E.Proxorov, V.N.Teliya kabi olimlarning xizmatlari beqiyosdir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, lingvokulturologik tadqiqotlar dunyo tilshunosligida ancha keng ko'lamda tadqiq etilgan bo'lsa-da, o'zbek tilshunosligida bu borada maxsus tadqiqotlar yaratilmagan, lekin S.Xojiyev, M.Xoliqova, Sh.Isoqova kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida bu masalalar muayyan darajada yoritilgani tilshunos Sh.Safarov tomonidan qayd etiladi [Сафаров 2006, 22].

Oxirgi yillarda jahon tilshunosligida lingvokulturologik masalalarga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Jumladan, rus tilshunoslaridan Y.S.Stepanovning “Konstantlar: Rus madaniyati lug'ati”da rus tili vakillari uchun muhim hisoblangan konseptlar va ularning mohiyati ancha jiddiy tarzda tadqiq qilingan [Степанов 2004]. N.D.Arutyunovanning “Til va inson dunyosi” tadqiqoti turli davr va turli millatlar matnlarida mavjud bo'lgan universal madaniyat terminlarini o'rganishga qaratilgan [Арутюнова 1998]. V.N.Teliya va uning maktabidagi tadqiqotlar predmeti frazeologizmlar, maqsadi esa milliy-madaniy konnotatsiyalari va “mentalitetning xarakterli chiziqlari”ni tavsiflashdan iborat [Телия 1996]. Lingvokulturologiya va lingvokulturologik terminlar

lingvokulturologik metodlar singari mualliflar tomonidan ko'pincha aniq asoslab berilmaydi. Natijada, lingvokulturologik kategoriya erkinlikka ega bo'lib, ba'zida biror termin ostida, hatto til siyosatini ham ifoda etishi mumkin bo'ladi. Oxirgi o'n yil ichida bu yo'nalishlar (asosan, lingvokulturologiya va lingvokognitologiya) o'zbek tilshunosligiga ham kirib kela boshladi.

Har bir inson milliy an'analar, tarix va adabiyotni o'z ichiga olgan muayyan milliy madaniyatga tegishli bo'ladi. Madaniyatlararo kommunikatsiya, til va madaniyat o'rtasidagi aloqalar, til xususiyatlarini o'rganishda mamlakatlar va ularda yashaydigan xalqlarning iqtisodiy hamda ilmiy aloqalari muhim mavzulardan hisoblanadi. E.Sepirning to'g'ri ta'kidlashicha: "Til – bu madaniyatni ilmiy o'rganishda yetakchilik, boshlovchilik qilishi bilan muhim ahamiyatga egadir" [Сепир 2001, 132].

Mutaxassislarning aniqlashicha, globallashuvning qudratli to'lqinlari yaqin kelajakda dunyodagi 2000ga yaqin millat va elatlarning milliy tilini "yuvib ketishi" ehtimoli bor ekan. Ma'lumki, milliy til dunyodagi ko'pgina mamlakatlarning davlat tili ham hisoblanadi. Demak, agar milliy til "yuvilib" ketsa, "davlat tili" degan tushuncha ham o'z-o'zidan yo'qolib ketishi xavfi tug'iladi.

XX asrning oxirgi choragidan boshlanib, bugungi kungacha davom etib kelayotgan globallashuv jarayoni siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalari kabi til sohasini ham qamrab olayotgani, globallashuvning milliy tilga ta'siri masalasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanib borayotgani barchaga ma'lum. Globallashuv o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega bo'lgan o'ta murakkab va qudratli bir jarayon sifatida, barcha sohalarida bo'lgani kabi, til sohasida ham chuqur o'ylab ko'rilgan yondashuvni talab qiladi. Ayniqsa, til globallashuvi jarayonida milliy til ta'sir ko'rsatuvchi emas, balki ta'sir oluvchi til maqomida bo'lsa.

Eslatib o'tish lozimki, globallashuvning siyosiy yoki iqtisodiy jihatlari ba'zida umumiy taraqqiyotga xizmat qiladigan mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi siyosiy yoki iqtisodiy hamkorlik va integratsiyaning rivojlanishiga, ba'zida esa muayyan davlatlar va xalqlarning siyosiy yoki iqtisodiy qaramligiga olib kelsa, mazkur jarayonning madaniy jihatlari ba'zida ilm-fan, madaniyat va axborot sohalaridagi mintaqaviy yoki xalqaro hamkorlikning rivojlanishi, mintaqaviy yoki xalqaro darajadagi yagona ilm-fan, madaniyat va axborot makonining vujudga kelishiga, ba'zida esa muayyan davlatlar va xalqlarning boshqa davlatlar madaniyati, hatto mafkurasi ta'siriga tushib qolishi, shuningdek, "ommaviy madaniyat" kabi salbiy jarayonlarning yuz berishiga sabab bo'ladi. Globallashuvning til bilan bog'liq jihatlarida ham ushbu jarayonning ana shu ikki tomoni – ijobiy va salbiy tomonlari ko'zga tashlanadi: globallashuv jarayoni

muayyan til yoki tillarni mintaqaviy yoki xalqaro tilga yoki tillarga aylantirish orqali, bir tomondan, turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida o'zaro muomala ko'prigi yaratsa, ikkinchi tomondan mintaqaviy yoki xalqaro til yoki tillarning milliy tillarga ta'siri, jumladan, milliy tilda chet tillari leksik va boshqa unsurlarining ko'payishi, milliy tilning qo'llanish doirasining qisqarishi va hatto butunlay yo'qolib ketishi muammosini keltirib chiqaradi.

Aytib o'tish lozimki, mintaqaviy yoki xalqaro maqomga ega bo'lgan tillarning milliy tilga ta'siri ikki yo'l orqali: birinchidan – boshqa davlatlar va xalqlar bilan muayyan mintaqaviy yoki xalqaro til vositasida bevosita muloqot (o'zaro tashriflar, uchrashuvlar, birgalikdagi yig'inlar, qo'shma dasturlar va loyihalar va boshqa qo'shma tadbirlar ko'rinishida) qilish, ikkinchidan – bugungi axborot asrida bosma va elektron axborot manbalarida mintaqaviy yoki xalqaro tillardagi turli – siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va boshqa turdagi axborotlardan foydalanish jarayonida yuz beradi. Shu o'rinda mintaqaviy va xalqaro tilning har doim ham davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarda yagona yoki asosiy aloqa tili bo'lolmasligini, bunday munosabatlarda tarjima vositasida milliy tillardan ham keng foydalanilayotganini eslatib o'tish lozim. Biroq, globallashuv jarayonidagi milliy til bilan bog'liq muammolar faqatgina xalqaro yoki mintaqaviy tilning milliy tilga ta'siridangina iborat emas. Axborot texnologiyalari katta sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan, turli tillardagi turli adabiyotlarni milliy tilga tarjima qilish hajmi o'tgan davrlarga nisbatan keskin oshib borayotgan bugungi kunda tarjimaning ham milliy tilga bo'lgan ta'sirini unutmaslik lozim.

Har bir millat o'ziga xos ko'rish tarzi, olamni o'ziga xos tarzda idrok etish intizomi, umumlashtirib aytganda, o'ziga xos tafakkur tamoyiliga ega. Shuning uchun ham “milliy ong”, “milliy tafakkur”, “milliy tuyg'u” degan oliy tushunchalar ming yillardan buyon insonlar qalbidagi nurga qudrat va qamrov baxsh etib keladi. Amerika tilshunosi Benjamin Li Uorf “Agar Nyuton inglizcha gapirmaganida, inglizcha o'ylamaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti bir qadar boshqacharoq bo'lardi”, degan. Tilning mohiyati, vazifasi ko'pincha benihoya jo'n talqin etiladi. Go'yoki til – eng muhim aloqa vositasi bo'lgan ijtimoiy hodisa. Tilning aloqa vositasi ekanligi uning juda ko'plab vazifalaridan faqat bittaginasidir. Aslida til, eng avvalo, dunyoni ko'rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir. Ayni paytda tilning ruhiy, estetik hodisa ham ekanligini unutmasligimiz lozim” [Махмудов 1998, 9-10].

Globallashuv va o'zbek tili

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, globallashuv yangi hodisa

emasligi, balki insoniyatning ko'p asrlik tarixida unga o'xshagan jarayonlar doimiy ravishda yuz berib turganligiga amin bo'lamiz. Jumladan, Buyuk ipak yo'li faoliyati, ellinizm, xristianlik va islom madaniyatlarining bir necha mintaqalarga tarqalishi, garchi hozirgi globallashuvdan farqli ravishda muayyan hududlar va sohalar bilan cheklangan bo'lsa-da, o'tmishda yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va madaniy globallashuv unsurlarini o'zida mujassam etgan edi. Shunga ko'ra, o'tmishda yuz bergan globallashuv tajribalaridan xulosa chiqargan holda, bugungi davr globallashuviga bo'lgan munosabat va yondashuvni to'g'ri shakllantirish imkoni yuzaga keladi. Birinchi bosqichi IX-XII asrlarda, ikkinchi bosqichi esa XIV asr oxirlari – XV asrda yuz bergan Markaziy Osiyo Uyg'onishi ham o'sha davrdagi globallashuv jarayonlari mahsuli bo'lib, unda globallashuvning siyosiy, iqtisodiy va madaniy oqibatlari (siyosiy mustaqillik, iqtisodiy taraqqiyot, madaniy yuksalish) bilan birgalikda globallashuvning tilga bo'lgan katta ta'siri ham ko'zga tashlanadi. Ushbu ta'sir, bir tomondan, o'sha davrning xalqaro mavqega ega tillari hisoblangan yunon, arab va fors tillarining islom olami, jumladan, Markaziy Osiyoda keng yoyilishiga, ikkinchi tomondan esa mahalliy davlatlarning qo'llab-quvvatlashi bilan turkiy tilning ham mazkur tillar tajribalari asosida keng qo'llanila boshlashi ko'rinishida yuz berdi. Bu borada Qoraxoniylar (X-XIII asrlar) va Temuriylar (XIV-XV asrlar) davlatlari hukmdorlarining o'sha davrlardagi til globallashuvi sharoitida milliy tilni saqlab qolish, rivojlantirish va uning mavqeini yuksaltirish borasida amalga oshirgan chora-tadbirlari alohida o'rin tutdi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu sulolalar hukmronligi davrida ajdodlarimiz globallashuvning ijobiy jihatlaridan samarali foydalangan hamda ushbu jarayonning tilga bo'ladigan salbiy ta'sirini oldini olish borasida ham kerakli chora-tadbirlar ko'rgan holda ona tilimizning qo'llanish doirasini misli ko'rilmagan darajada kengaytirishga erishishdi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishib, jahonga yuz ochgan, jumladan, turli davlatlar bilan keng miqyosli va o'zaro manfaatlariga asoslangan munosabatlar o'rnatgan, jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi va uzviy bir qismiga aylanib borayotgan, natijada esa globallashuv jarayonida bevosita ishtirok etayotgan bugungi kunda, birinchidan, o'zbek tilining O'zbekiston Respublikasidagi davlat, millatlararo muomala, biznes, madaniyat va ilm-fan tili sifatidagi mavqeini mustahkamlash, ikkinchidan, o'zbek tiliga boshqa tillarning leksik va stilistik unsurlarining keng kirib kelishini oldini olish orqali ona tilimiz sofligini saqlash dolzarb masalalar jumlasiga kiradi.

Globallashuv jarayonida o'zbek tiliga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan tillar to'g'risida gapiradigan bo'lsak, bugungi kunda sobiq Sovet Ittifoqi hududidagi davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda rus

tili mintaqaviy til maqomini saqlab turganligi, ingliz tilining esa mazkur davlatlar uchun xalqaro til mavqeini to'la egallab bo'lganligini eslatish lozim. Ya'ni, bugungi kunda O'zbekiston va o'zbek xalqining boshqa davlatlar va xalqlar bilan munosabatlari – o'zaro tashriflari, uchrashuvlari, birgalikdagi yig'inlari, qo'shma dasturlari va loyihalari hamda boshqa qo'shma tadbirlari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hududida asosan rus tilida, ushbu mintaqadan tashqarida esa asosan ingliz tilida amalga oshirilmoqda. Biroq, yuqorida aytib o'tilganidek, rus va ingliz tillari har doim ham mintaqa davlatlari va xalqlarining o'zaro munosabatlarida yagona yoki asosiy aloqa tili bo'lib qolayotgani yo'q. Bugungi kunda O'zbekistonning bir qator davlatlar, jumladan, Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan aloqalarida milliy tilimiz – o'zbek tili tarjima vositasida keng qo'llanilmoqda. Shu o'rinda eslatib o'tish lozimki, davlatimizning boshqa davlatlar bilan munosabatlarida ona tilimizning qo'llanilishi o'sha davlatlar tillarini yaxshi biluvchi o'zbek tarjimonlariga ega bo'lishimizga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizning boshqa davlatlar va xalqlar bilan bo'lgan munosabatlarida bo'lgani kabi, aholining xalqaro bosma hamda elektron axborot manbalaridagi turli siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va boshqa turdagi axborotlardan foydalanishida rus va ingliz tillarining salmog'i katta ekani kuzatilmoqda. Shuning bilan birgalikda ko'plab Yevropa (fransuz, nemis, italyan, ispan va h.k.) va Osiyo (xitoy, yapon, koreys, turk, arab, fors, hind, urdu va h.k.) tillaridan o'zbek tiliga ko'plab badiiy va ilmiy tarjimalar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston aholisining xorijiy tillarni o'rganishi, birinchidan, jahon xalqlari bilan turli, jumladan, iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarning rivojlanishiga, ikkinchidan, boshqa turdagi axborotlardan foydalanish imkoniyatining kengayishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari globallashuv jarayonida muayyan tillarning milliy tilga ta'siri natijasida milliy tilga nafaqat yangi so'z va atamalar, balki milliy tildagi muqobillari beriladigan yangi tushunchalarning ham kirib kelishi, ya'ni, milliy tilning yangi tushunchalar bilan ham boyishi yuz berishini, jumladan, o'zbek tiliga kirib kelgan "siyosiy (iqtisodiy) sheriklik", "qo'shma korxona", "uyali aloqa" kabi ko'plab yangi tushunchalar aynan globallashuv davri mahsullari ekanligini unutmazlik lozim. Xorijiy tillarni bilish darajasining oshib borayotgani o'zbek tilidagi manbalarning boshqa tillarga tarjima qilish ehtiyojining oshib borishiga ham sabab bo'lmoqda. Bu esa nafaqat xalqimizning jahon bilan yaqindan tanishishiga, balki yurtning jahonga keng tanitilishiga ham olib kelmoqda. Bu borada o'quv yurtlarida xorijiy tillarni o'rgatishni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim o'rin tutmoqda.

Ulug' ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniyning "Hifzi lison", ya'ni, "tilni saqlash" nomli maqolasi bor. Bu o'rinda, tabiiyki, Avloniy birinchi navbatda ona tili – milliy tilni saqlash muammosini nazarda tutgan. U bu haqda shunday yozadi: "Hifzi lison deb har bir millat o'z ona tili va adabiyotini(ng) saqlamagini aytilur. Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgon oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur" [Авлоний 2006, 61]. Demak, biz ingliz yoki boshqa jahon tillarini ingliz yoki boshqa xalq vakiliga aylanib qolish uchun emas, balki milliy o'zligimizni saqlash va pirovard natijada o'zbek bo'lib qolishimiz uchun ham o'rganishimiz kerak bo'ladi. Zero, "bobolarimiz yetushg'on va yaratgan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak va axtarsak, yo'qolganlarini ham topurmiz. "Yo'qolsa yo'qolsun, o'zi boshimga tor edi", - deb Yevrupo qalpog'ini kiyib, kulgi bo'lmak zo'r ayb va uyatdir. Payg'ambarimiz: "Erlarda jamol lison va tildur", - demishlar" [Авлоний 2006, 61].

Milliy til avlodlarni bir-biri bilan bog'lab turadigan silsiladir, bu silsilani uzish o'z ildiziga bolta urish bilan barobar hisoblanadi. Milliy til yo'qlikka mahkum etildimi, millatning ma'naviy poydevoriga darz ketadi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy robita yo'qoladi.

Taklif va tavsiyalar

O'zbekiston Respublikasi hukumatining mamlakatimizda o'zbek tilining nafaqat davlat tili, balki iqtisod, madaniyat va ilmfan tili sifatidagi mavqeini mustahkamlash borasida olib borayotgan siyosati tufayli hozirgi kunda globallashuvning ona tilimizga jiddiy salbiy ta'siri kuzatilmayotgan bo'lsa-da, kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan bunday ta'sirning oldini olish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz:

1. Ma'lumki, butun dunyo bo'yicha tilni o'qitish va o'rganish metodikasi yangilanmoqda. Bizda esa o'zbek tilini o'qitish metodikasi haligacha o'zgargan deya olmaymiz. Buning uchun, avvalambor, o'zbek tili darsliklarini eng ilg'or tajribalar asosida qaytadan yaratish lozim. Yangi metodlar asosida yaratilgan darsliklar o'zbek maktablari uchun alohida, o'zga tillardagi maktablar uchun alohida va o'zbek tilini o'rganayotgan yo o'rganmoqchi bo'lgan chet elliklar uchun alohida bo'lishi lozim.

2. O'zbek tilining davlat va jamiyat hayotidagi mavqeini doimiy ravishda mustahkamlab borish, uni nafaqat davlat tili, balki to'laqonli iqtisodiy, madaniy va ilmiy tilga ham aylantirish, buning uchun o'zbek tilida yaratiladigan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy adabiyotlar sonini ko'paytirish lozim.

3. Xorijiy, jumladan, xalqaro tillarning qo'llanilish sohasini faqatgina xorijiy davlatlar vakillari bilan bo'lgan munosabatlar bilan

cheklash hamda bunday tillarni mamlakatimizning ichki hayotida, mamlakatimiz sub'yektlari o'rtasidagi aloqa tili bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

4. Chet tillardan o'zbek tiliga o'zlashayotgan so'zlar, iboralar va atamalar sonini imkon darajasida kamaytirish, ularning o'zbekcha muqobillarini topish, yaratish va muomalaga kiritish lozim bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'zbek tilining terminologik immunitetini oshirish masalasiga jiddiyroq e'tibor qaratishga to'g'ri keladi. Zero, terminologiyasi yetarli darajada shakllanmagan va rivojlanmagan til, tabiiyki, globallashuv sharoitida qudratli tillarning "yordam"iga muhtoj bo'lib qoladi. Har qanday muhtojlik esa oxir-oqibat tobelikka olib borishi aniq.

5. O'zbekistonda ta'lim o'zbek tilidan tashqari 1000dan ortiq umumta'lim maktablarida qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, qirg'iz va turkman tillarida olib boriladi. Mazkur maktablarda davlat tili – o'zbek tilini o'qitish masalasiga ham jiddiy e'tibor berishga to'g'ri keladi. Buning uchun Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ta'lim o'zga tillardagi maktablar uchun mo'ljallangan yo'nalishda rus, tojik, qozoq va boshqa tildagi maktablar uchun alohida guruhlar tashkil etilishi (masalan: o'zbek-rus, o'zbek-tojik... guruhlari) va ularda yuqorida ko'rsatilgan millat vakillarining ta'lim olishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

6. O'zbek adabiyotini kengroq targ'ib qilish lozim. O'zbek adabiyoti namunalarining ingliz yo boshqa tilni o'rgangan o'zbek mutaxassisi tomonidan tarjima qilinishi ko'zlangan natijalarni bermayotgani yaxshi ma'lum. Bu haqiqatni tan olishga to'g'ri keladi. Tarjima bo'lguvchi adabiyot egasi hech qachon tarjima qilinuvchi til egalarining milliy mentaliteti va u tilning milliy koloritini o'sha til vakillari darajasida qamrab ololmaydi. Olti yil o'zbek tilini o'rganib, o'z adabiyoti namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilishga qo'l urgan bir ingliz yoki yaponning qanchalik ayanchli ahvolga tushishini tasavvur qilish qiyin bo'lmasa kerak.

7. O'zbek tilini eng yangi ta'lim metodlari vositasida turli xalqlarga o'rgatish, o'zbek adabiyotini dunyo bo'ylab keng targ'ib qilish va tanishtirish maqsadida O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida maxsus xalqaro kanalini ochish maqsadga muvofiq bo'ladi.

8. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti qoshida "O'zbek tili" xalqaro fondini tashkil etish va ushbu fond orqali Tojikiston, Afg'oniston, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va boshqa davlatlarda yashaydigan o'zbeklar uchun o'quv, ilmiy va adabiy adabiyotlar yaratishni yo'lga qo'yish o'zbek tilining turli mamlakatlarda yagona grammatika va leksik tarkib asosida shakllaishiga yordam beradi.

Zero, ayni paytda Qozog'iston va Qirg'izistonda yashaydigan o'zbekzabon aholi tilining qozoq va qirg'iz tillari ta'siri ostida, Tojikiston va Afg'onistonda yashaydigan o'zbeklarning tojik va dari tillari ta'siri ostida shakllanayotgani sir emas.

Ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlar bo'yicha aniq va izchil chora-tadbirlar amalga oshirilgan taqdirdagina milliy tilimiz xorijiy, jumladan, xalqaro tillar ta'siriga tushib qolmaydi, uning mamlakatdagi qo'llanuv doirasi qisqarmaydi va biz globallashuvning taraqqiyotga xizmat qiluvchi ijobiy jihatlaridan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'la olamiz.

Xulosa

Bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, kecha-yotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni nazarda tutgan holda til, ayniqsa, milliy til xususida bahs ketganda, uni kengroq doirada tahlil qilishga to'g'ri keladi. Boshqacha aytganda, til – jamiyat – inson muammosiga tamomila yangicha yondashuv – global masala nuqtai nazaridan qarash fursati allaqachon yetgan.

Har bir tilning borlig'ida muayyan bir madaniyat yotadi. Dunyodagi mavjud har bir milliy til o'ziga xos tafakkur tarziga ega. Til vositasida ifodalanadigan tafakkur tarzlari xilma-xilligi, rang-barangligi bilan go'zal va betakrordir. Demak, dunyoda bir til o'ldimi, insoniyat boshqacha o'ylash va so'zlash, yangicha tushunish va anglash, xilma-xil izohlash va talqin qilish, turli ko'rinishlarda mavjud bo'lish va amal qilishning yana bir imkoniyatini qo'ldan boy bergan bo'ladi.

Globallashuv jarayoni qanchalik shiddat bilan dunyoni qamrab olmasin, qanchalik siyosiy va iqtisodiy chegaralarni "yuvib", yagona iqtisodiy makon yaratishga intilmasin, o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun milliy madaniyatlar, xususan, milliy tillarning mavjudligiga xavf solmasin, har qanday milliy madaniyat va milliy til borlig'ini saqlash va asrashga, o'z an'analari asosida yashash, rivojlanish va kelajak avlodlarga munosib meros sifatida yetib borishga haqlidir. Islomdan keyingi davrni hisobga olgan taqdirda ham o'zining ming yillik tarixiy ildizlari, boy ma'naviy merosiga ega bo'lgan va tarix sinovlaridan mardonavor o'tib kelgan turkiy til – o'zbek tili globallashuv jarayonining shiddatli to'fonlari-yu bo'hronlaridan sharaflil o'tishi uchun barcha salohiyat va imkoniyatlar mavjud, deb o'ylaymiz.

Adabiyotlar

Авлоний, Абдулла. 2006. *Танланган асарлар*. 2-жилд. Тошкент: Маънавият.
Арутюнова, Н.Д. 1998. *Язык и мир человека*. Москва: Языки русской культуры.
Гумбольдт, В. фон. 1985. *Язык и философия культуры*. Москва: Прогресс.
Махмудов, Н. 1998. *Тил*. Тошкент: Ёзувчи.

- Сафаров, Ш. 2006. *Когнитив тилшунослик*. Самарқанд: Сангзор.
- Сепир, Э. 1993. *Избранные труды по языкознанию и культурологии*. Москва.
- Степанов, Ю. С. 1997. *Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования*. Москва.
- Степанов, Ю. С. 2004. *Константы: Словарь русской культуры*. Москва: Академический проект.
- Тарасов, Е. Ф. 1993. "Введение". *Язык и сознание: парадоксальная рациональность*, 6-15. Москва.
- Телия, В.Н. 1996. *Русская фразеология*. Москва: Языки русской культуры.
- Уорф, Б. 1960. "Отношение норм мышления к языку". *Новое в лингвистике* 1: 58 – 91. Москва.
- Вежбицкая, А. 1996. *Язык. Культура. Познание*. Москва.
- Звегенцев, В. А. 1960. *История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях*. Москва. Ч. 1.

References

- Avlonij, Abdulla. 2006. *Tanlangan asarlar*. 2-zhild. Toshkent: Manavijat.
- Arutjunova, N.D. 1998. *Jazyk i mir cheloveka*. Moskva: Jazyki russkoj kul'tury.
- Gumbol'dt, V. fon. 1985. *Jazyk i filosofija kul'tury*. Moskva: Progress.
- Mahmudov, N. 1998. *Til*. Toshkent: Jozuvchi.
- Safarov, Sh. 2006. *Kognitiv tilshunoslik*. Samarqand: Sangzor.
- Sepir, J. 1993. *Izbrannye trudy po jazykoznaniyu i kul'turologii*. Moskva.
- Stepanov, J. S. 1997. *Konstanty. Slovar' russkoj kul'tury. Opit issledovaniya*. Moskva.
- Stepanov, J. S. 2004. *Konstanty: Slovar' russkoj kul'tury*. Moskva: Akademicheskij projekt.
- Tarasov, E.F. 1993. "Vvedenie". *Jazyk i soznanie: paradoksal'naja racional'nost'*, 6-15. Moskva.
- Telija, V.N. 1996. *Russkaja frazeologija*. Moskva: Jazyki russkoj kul'tury.
- Uorf, B. 1960. "Otnoshenie norm myshlenija k jazyku". *Novoe v lingvistike* 1: 58 – 91. Moskva.
- Vezhbickaja, A. 1996. *Jazyk. Kul'tura. Poznanie*. Moskva.
- Zvegencev, V. A. 1960. *Istorija jazykoznaniya XIX i XX vekov v ocherkah i izvlechenijah*. Moskva. Ch. 1.

Muallif haqida: *Xolmo'minov Jafar Muhammadiyevich* – falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti.

Iqtibos uchun: Xolmo'minov, J. M. 2020. "Globalashuv sharoitida milliy til fenomenining ijtimoiy-falsafiy aspektlari". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 75-86.

About the author: *Jafar M. Kholmuminov* – Doctor of Philosophy Science (DSc), Associate Professor, Tashkent State University of Oriental Studies.

For citation: Kholmuminov, J. M. 2020. "Philosophical-Social Aspects of Language Phenomen in Globalization Condition". *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 75-86.